



INKLYUZIV TA'LIM ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING AHAMIYATI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Tag'onova Guliza Bayramaliyevna*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233335>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yordamida inklyuziv ta'limni tashkil etish, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar hayotida, ta'lim tarbiya olishida, jamiyatga moslashishida mahalla, oila, maktabning o'rnini, pedagogik ta'lim klaster yordamida inklyuziv ta'lim ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va mexanizmlarini ishlab chiqish haqida bilishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim klasteri, inklyuziv ta'lim, alohida ta'limga ehtiyoji bor bola, mahalla, oila, maktab.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotchilar I.N.Simaeva va V.V.Xitryuk inklyuziv ta'lim maydoni xususida ilmiy mulohazalarni bildirib, shunday deydi: inklyuziv ta'lim maydoni ijtimoiy makonning integratsion birligi bo'lib, uning mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan tarkibiy qismlar, bloklar tizimi bilan ifodalanadi. Bunda ta'lim va shaxslararo munosabatlar har bir ishtirokchi uchun qulay formatda amalga oshiriladi, hamda shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlar rivojlanish va o'z-o'zini o'zgartirishni ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi mahalla, ota-onalar, o'quvchilar, o'qituvchi va murabbiylar, hamda boshqa mutaxassislarni ta'lim va tarbiya, ijtimoiy moslashish, sog'liqni saqlash, korreksion rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan faoliyatning turli jarayonlariga jalb qilishdir. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri inklyuziv ta'lim ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarni yo'lga qo'yish va shu orqali inklyuziv ta'lim tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish, undan kutilgan natijalarga erish mexanizmlari sifatida quyidagi texnologiyalarni qo'llash orqali biz samarali va kutilgan natijalarga erishishimiz va bu orqali alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'g'ri integratsiya qilishga erishishimiz mumkin. Jumladan quyidagi texnologiyalar yordamida pedagogik ta'lim klasterining mexanizmlarini ochib beramiz:

“Mahalla maktabim” texnologiyasi bunda bilamizki mahalla jamiyatimizning kichik bir bo'g'ini hisoblanadi. Shuning sababdan ham inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishimizda mahallaning o'rnini beqiyordir. Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar keng ko'lamli va samarali ta'lim tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Mahalla hamkorligi esa, inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mahalla hamkorligi inklyuziv ta'limning boshqa maqsadlarga erishishida ham muhimdir. Bunday hamkorliklar yordamida, mahalliy tashkilotlar va oilalar har bir alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolaga individual va shaxsiy ravishda yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, ularning kerakli qobiliyat va zarur talablarni aniqlashda yordam berishi shubhasiz.

“Oila ta'lim-tarbiyaning bosh markazi” texnologiyasi bunda bola tarbiyasida oilaning o'rnini beqiyosdir. Oila bolaga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, uni atrofda hayotga, jamiyatga moslashishida ko'maklashadi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir.

Inklyuziv ta'limning alohida e'tirof etadigan jihatlardan biri bu alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni oilasi, ota-onasi bag'ridan uzoqlashmagan holda, o'ziga yaqin bo'lgan



umumta'lim muassasalarida ta'lim olishlari kafolatlaydi. Maktabga borish bola hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Mazkur davr bilan bolaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlab o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi" deb aytib o'tganlar. Aynan shu vaqtgacha bo'lgan davr ota-onadan katta masuliyatni talab etadi. Mana shu vaqtda ota-ona o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishi kerak. Aynan shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir.

“Maktab inklyuziv ta'lim ko'prigi” texnologiyasi bunda “Ta'lim hamma uchun Umumjahon Deklaratsiyasi” har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatlaydi. Mazkur Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qabul qilingan: Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta'lim-tarbiya olishni talab etadi;
- o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;
- maktabda to'laqonli korreksion pedagogik yordam tashkil etiladi;
- bolalar to'g'risidagi qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;
- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi;
- inklyuziv maktablarning moddiy ta'minoti yaxshilanadi.

O'z navbatida inklyuziv ta'lim jamoaviy ish bo'lib, javobgarlik butun maktab jamoasi zimmasiga yuklatiladi. Bunda sinf rahbari yordam ko'rsatuvchi bo'lib asosiy rol o'ynaydi. Ta'lim siyosati uni tartibga soladi. Bu kabi yordamlar turli xil shakllarda bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sinf o'qituvchisiga maslahat va yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota-onalar, ko'ngillilar yoki katta o'qituvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;
- o'quv reja, dars jadvali, baholash mezonlariga moslashtirish va o'zgarishlarga ko'niktirish;
- o'qituvchilar malakalar va bilimlarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- faol qo'llab-quvvatlovchi rahbar va shu kabilarni o'z ichiga olgan ijobiy maktab muhitini tashkil etish va ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirish;
- ma'muriyatga bolalarni aniqlash va baholashda yordam kursatish;
- ijtimoiy, psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Inklyuziv maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va ilmiy asosda tashkil etish uchun o'quvchining o'ziga xos psixologik holatini o'rganishi muhim sanaladi. Zero, har bir bola individual va o'ziga xos fe'l-atvorga ega. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida ularga individual munosabatda bo'lish, shaxsiy xususiyatlarini o'rganish orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish oqilona va samarali usuldir. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolani o'rganishda uning birinchidan yaxshi xislatlari, ijobiy tomonlarini e'tirof etish yaxshi samara beradi. Demak, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro do'stona munosabatning shakllanishi ta'lim sifatini kafolatlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodjamqulov U.N. “Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari” pedagogika fanlari doktori diss.. – Chirchiq, 2020
2. c
3. L.Sh.Nurmuhamedovanning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” p.f.n diss 2007yil
4. Г.Шоумаров «Развитие инклюзивного образования в Узбекистане» стр.7-9 журнал «Бола ва замон» №4 2008г